



TOSHKENT VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalarini tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021-yil 1-iyun holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbir qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-iyun holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2021- yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)

4

31 544




Mas'uliyati
cheklangan jamiyat

4 232



Oilaviy korxonona

268



Unitar korxonona

6 596



Xususiy korxonona

50



Aksiyadorlik jamiyati


337



Boshqa korxonalar

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2020- y. ■ 2021- y.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-may oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar-may oylarida, birlikda)




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar



(1-iyun holatiga ko‘ra, birlikda)




Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **23,8** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish
 ■ O‘rmon xo‘jaligi
 ■ Baliq xo‘jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **15,7** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar




2021- yil 1-iyun holatiga ko'ra, sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 9 064 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,7 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 16,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 92,1 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 15,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 5,1 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 4,5 % ga kamaygan (jami sanoatdagi ulushi 0,7 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 13,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,1 %) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **15,9 foizga oshdi**




Kichik tadbirkorlik subyektlarisoni




15,8 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




19,4 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




11,5 foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




O'tgan yilga nisbatan **36,5 foizga oshdi**



Xususiy korxonalar



Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)




2021- yil 1-iyun holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3 761 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,9 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 12,1 % ga (jami qurilishdagi ulushi 52,0 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 18,0 % ga (jami qurilishdagi ulushi 7,7 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 20,7 % ga (jami qurilishdagi ulushi 40,3 %) o'sishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)

2021- yil 1-iyun holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 13 680 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 26,2 % ga oshdi.

Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 25,5 % ga (jami savdodagi ulushi 69,2 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 28,5 % ga (jami savdodagi ulushi 23,9%), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan – 24,5 % ga (jami savdodagi ulushi 6,9 %) o'sishidir.



• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

746



• Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

25



• Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

25



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2021-yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)



332

yashash bo'yicha xizmatlar



3 295

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar


2021-yil 1-iyun holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 3 627 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 17,2 % ga oshdi.


Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 16,3 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 90,8 %), yashash bo'yicha xizmatlarning – 25,8 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 9,2 %) o'sishidir.



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- iyun holatiga ko'ra 4 654 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 099 taga yoki 30,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 4 232 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 063 taga yoki 33,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 515 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 65 taga yoki 14,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1 iyun holatiga ko'ra 35 248 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6 141 taga yoki 21,1 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 31 544 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 908 taga yoki 23,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 923 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 432 taga yoki 17,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, 1 499 tani tashkil etib, ulardan 1 365 tasi yoki 91,1 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 137 taga yoki 11,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-may oylarida viloyatimizda 66 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-may oylarida, birlikda)



Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining
qo'shma korxonaga va xorijiy korxonalariga taqsimlanishi
(2021- yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonaga	xorijiy korxonaga
Toshkent viloyati	1 499	747	752
Oqqo'rg'on t.	16	6	10
Ohangaron t.	83	36	47
Bekobod t.	11	8	3
Bo'stonliq t.	68	36	32
Bo'ka t.	15	8	7
Quyichirchiq t.	45	24	21
Zangiota t.	190	89	101
Yuqorichirchiq t.	126	62	64
Qibray t.	161	82	79
Parkent t.	24	13	11
Piskent t.	21	11	10
O'rtachirchiq t.	96	43	53
Chinoz t.	25	12	13
Yangiyo'l t.	80	31	49
Toshkent t.	87	56	31
Nurafshon sh.	63	30	33
Olmaliq sh.	51	14	37
Angren sh.	112	74	38
Bekobod sh.	27	17	10
Ohangaron sh.	48	22	26
Chirchiq sh.	84	52	32
Yangiyo'l sh.	66	21	45

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Toshkent viloyati

Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Tel.:71 202-86-83